




# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

**Toshkent shahrida  
kichik tadbirkorlik  
2022- yil yanvar-dekabr**


# Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi **46,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **35,9** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **15,1 ming** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,6** foizga kam demakdir.

## 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **5 840** ta, sanoatda **1 558** ta hamda qurilishda **1 160** ta yangidan tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Sanoat 36,3



Qurilish 63,1



Investitsiya 42,5



Savdo 60,8



Xizmatlar 37,2



Eksport 20,9



Import 48,8



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

106 071




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

15 078

2022- yilning yanvar-dekabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022- yil yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

33,7%



Sanoat

15,6%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

1,0%



Qurilish

9,0%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,1%



Tashish va saqlash

4,3%



Axborot va aloqa

4,9%




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,8%



Boshqa faoliyat turlari


22,6%



2020 y. 2021 y. 2022 y.

Yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.2 ■ 2022- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar




## Hududlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



■ 2021 y. yanvar-dekabr

■ 2022 y. yanvar-dekabr

## 2022- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Mirzo Ulug'bek tumani – 12,2 %, Chilonzor tumani – 12,2 %, Yunusobod tumani – 12,0 %, Shayxontohur tumani – 9,2 %, Olmazor tumani – 9,1 %, Yashnobod tumani – 9,1 %, Mirobod tumani – 8,5 % hissalariga to'g'ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

## yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022– yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda  
5840ta

Sanoatda  
1558ta

Qurilishda  
1160a

Yashash va ovqatlanishda  
987ta

## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 35,9 birlikni tashkil etdi.



Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra\*

2020- y.

32,0

2021- y.


33,1

2022- y.

35,9

2022- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 74,1 birlik, Mirobod tumanida 57,7 birlik, Bektemir tumanida 50,9 birlik, Chilonzor tumanida 50,0 birlik, Sergeli tumanida 36,2 birlikni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra\*


**Eng yuqori ko'rsatkich**  
Yakkasaroy tumani  
- 74,1 birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**  
Chilonzor tumani  
- 50,0 birlik.

**Past ko'rsatkich**  
Yangi hayot tumani  
- 15,8 birlik.

2022- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 74,1 birlik, Mirobod tumanida 57,7 birlik, Bektemir tumanida 50,9 birlik, Chilonzor tumanida 50,0 birlik, Sergeli tumanida 36,2 birlikni tashkil qilgan.


2022- yilning yanvar-dekabrda har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi




yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik  
subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da

2022- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **46,8 %** ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-dekabrda **48,1 %**).

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 966,8 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 20,9% ni tashkil etdi.




yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

## 2022- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chilonzor tumanida – 34,8 %, Uchtepa tumanida-75,6 %, Bektemir tumanida – 48,8 % Mirzo-Ulug'bek tumanida – 34,1 Yashnabod tumanlarida – 36,9 % va eng kam ko'rsatkich Mirobod tumanida – 6,3 % ni tashkil etdi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **7281,0** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **48,8 %** ini tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiheyot tumanida – 79,9 %, Sergeli tumanida – 47,4 %, Olmazor tumanida – 52,3 %, Mirzo-Ulug'bek tumanida – 65,1 %, Yakkasaroy tumanida – 51,3 %. Eng past ko'rsatkich Mirobod tumanida – 38,9 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




**2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **38 904,8** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Olmazor tumani (5221,2 mlrd. so'm), Chilonzor (4468,0 mlrd. so'm), Yashnobod (4477,4 mlrd. so'm), Sergeli (3689,6 mlrd. so'm) va Yakkasaroy (3525,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Uchtepa tumanida (2110,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **36,3** % ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Olmazor tumani (65,7%), Yunusobod tumani (54,0%), Sergeli tumani (30,2%), Chilonzor tumani (46,5%), Yangiheyot tumanida (59,5%), Mirzo-Ulug'bek tumani (43,2%), Yakkasaroy tumani (47,0%), Uchtepa tumani (40,7%), Bektemir (29,3%) va Mirobod (28,0%) tumani tashkil etdi. kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **49 886,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **60,8** % ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **5,2** % ga kamayganligi kuzatildi.

## 2022- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Uchtepa tumani (6822,1 mlrd. so'm), Yunusobod (5667,9 mlrd. so'm), Chilonzor 5566,6 mlrd. so'm), Bektemir (4537,5 mlrd. so'm), Shayxontohur (5476,5 mlrd. so'm), Yakkasaroy (5336,7 mlrd. so'm) va Yashnobod (3531,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



■ hajm, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **20 122,5** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **63,1 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **106,1 %** ni tashkil qildi.

## 2022- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Mirzo-Ulug'bek (2539,3 mlrd. so'm), Yashnobod (1934,6 mlrd. so'm), Yakkasaroy (2321,4 mlrd. so'm), Yunusobod (2602,7 mlrd. so'm), Mirobod (2315,1 mlrd. so'm), Chilonzor (1846,6 mlrd. so'm) hamda Sergeli (1216,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



■ hajm, mlrd. so'm

○ o'sish sur'ati, %


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati



yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **51 124,7** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **37,2 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **104,1 %** ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- dekabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Mirzo-Ulugʻbek tumani (5062,6 mlrd. soʻm) Yunusobod tumani (5754,4 mlrd. soʻm), Chilonzor tumani (6256,9 mlrd. soʻm), Mirobod tumani (6228,1 mlrd. soʻm), Shayxontohur (4634,5 mlrd. soʻm), Yakkasaroy (5773,73 mlrd. soʻm) va Uchtepa (2732,7 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.




## 2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 35,6 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 138,2 % ni tashkil qildi.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 40,9 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 % ni tashkil qildi.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 85,7 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 86,5 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,2 % ni tashkil qildi.


# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022-yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada 3756 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 1252 (33,4%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 2145 (57,1%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 359 (9,5%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 0,5% (17 ta), sanoatda – 16,7% (629 ta), qurilishda – 6,9% (259 ta), savdoda – 34,3% (1287 ta), xizmatlar sohasida – 41,6% (1564 ta) ni tashkil etdi.

2022-yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Yunusobod 443 ta, Chilonzor 442 ta, Olmazor 366 ta, Yakkasaroy 364 ta, Mirzo-Ulug'bek 418 ta, Mirobod 315 ta tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2022- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




## 2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning IV choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 34,0 % ni, savdo 30,4 % ni, qurilish sohasida 30,7 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 69,2 % ni, xizmatda 58,9 % ni, qurilishda 53,2 % ni tashkil etdi.

## 2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlarda 40,9 % ni, qurilish 37,1 % ni, sanoat sohasida 39,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 58,8 % ni, xizmatlarda 52,6 % ni, sanoatda 51,8 % ni tashkil etdi.

